ANALITIK TAFAKKUR ADABIYOT O‘QITISH MAZMUNINI YANGILASHNING INTEGRATIV OMILI SIFATIDA

Sharobiddin Hasanov
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori,
Andijon davlat pedagogika instituti professori

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy va o‘rta adabiy ta’lim tizimida talabalarning analitik va mantiqiy tafakkurini shakllantirish hamda rivojlantirish masalalari tadqiq etilgan. Muallif axborot qamrovi kengaygan hozirgi davrda badiiy adabiyot darslarini shunchaki estetik zavq manbai emas, balki “fikr tarbiyasi” va intellektual salohiyatni oshiruvchi asosiy omil sifatida ko‘rib chiqadi. Maqolada tafakkur turlari, analitik fikrlashning 11 ta asosiy mantiqiy operatsiyasi hamda ularni amaliyotga tatbiq etish yo‘llari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: analitik tafakkur, adabiyot ta’limi, integrativ omil, fikr tarbiyasi, mantiqiy operatsiyalar, badiiy matn tahlili, tanqidiy fikrlash, fikrlash xaritasi, filologik kompetensiya, mustaqil ta’lim.

Аннотация: В данной статье исследованы вопросы формирования и развития аналитического и логического мышления студентов в системе высшего и среднего литературного образования. В современную эпоху расширения информационного охвата автор рассматривает уроки художественной литературы не просто как источник эстетического удовольствия, а как основной фактор «воспитания мысли» и повышения интеллектуального потенциала. В статье освещаются виды мышления, 11 основных логических операций аналитического мышления и способы их применения на практике.

Ключевые слова: аналитическое мышление, литературное образование, интегративный фактор, воспитание мысли, логические операции, анализ художественного текста, критическое мышление, карта мышления, филологическая компетенция, самостоятельное обучение.

Abstract: This article examines the issues of forming and developing analytical and logical thinking among students in the higher and secondary literary education system. In the current era of expanded information coverage, the author considers fiction lessons not merely a source of aesthetic pleasure, but a key factor in “educating thought”

and increasing intellectual potential. The article covers types of thinking, 11 main logical operations of analytical thinking, and ways to apply them in practice.

Keywords: analytical thinking, literary education, integrative factor, thought education, logical operations, analysis of literary texts, critical thinking, mind map, philological competence, independent study.

Ma’lumki, har qanday mamlakat o‘zining yuksak tafakkurga ega kishilari bilan qudratlidir. Tafakkuri taraqqiy etmagan millatning tanazzulga yuz tutishi tarixdan ma’lum.

Ulug‘ mutafakkir Alisher Navoiy "Xamsa” asarida: "Har ishniki qilmish odamizod, Tafakkur birla bilmish odamizod” [1, B. 122], – deya ta’kidlaydi.

Mamlakatimiz oliy ta’limi oldida bo‘lajak mutaxassislarning professional tayyorgarligi va intellektual saviyasini xalqaro tendensiyalarga muvofiqlashtirish vazifasi turibdi. Bunday darajaga esa faqat talabalarni analitik tafakkur qilishga o‘rgatish orqaligina erishiladi. Oliy adabiy ta’limda analitik tafakkurni rivojlantirishga e’tibor qaratish bo‘lajak filologlarni analitik fikrlaydigan qilish orqali butun jamiyat a’zolarini teran va har taraflama fikrlay oladigan holatga keltirishga sabab bo‘ladi. Hayot sur’atining tezligi, o‘zgarishlarning tinimsizligi, axborot oqimining to‘xtovsiz va bepoyonligi bugunning odamidan qamrovli fikrlashni talab qiladi. Hayotdagi har qanday muammoga turli nuqtayi nazardan qaray bilmaydigan kishi zamon shiddatiga, tobora kuchayib borayotgan raqobatga bardosh bera olmaydi. Shuning uchun ham XX asrning o‘rtalaridan boshlab G‘arb mamlakatlari pedagogik amaliyotida analitik tafakkurni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratila boshlandi. Chindan ham davr bilan hamnafas bo‘lish uchun har bir kishi hayot o‘z oldiga qo‘yayotgan turfa masalalarga turli tomondan yondashib, to‘g‘ri baholab, kerakli qaror qabul qilib, samarali chora ko‘radigan darajada fikrlay olishi lozim.

Ilmda fikrlash hodisasiga atrof olam bilan tizimli munosabatni modellashtira bilish qobiliyati tarzida qaraladi [8]. Odam o‘zi, atrofdagilar, olamdagi narsa-hodisalar to‘g‘risida qancha ko‘p o‘ylasa, uning fikrlash qobiliyati shuncha takomillashadi. Fikrlash jarayoni hammada har xil kechgani va turli natija bergani singari yondashuv yo‘sini, qamrovi, uslubi, obyektga munosabatiga ko‘ra bir qancha turlarga bo‘linadi.

Tafakkur obyektiga yondashuv yo‘siniga qarab fikrlashning deduktiv, induktiv, ijodiy, pragmatik singari bir qacha turlarga ajratish mumkin. Deduktiv tafakkurda umumiy tayanib xususiy hodisa haqida

to‘xtamga kelinsa, induktiv fikrlashda xususiy hodisalarga asoslanib, umum to‘g‘risida xulosa chiqariladi. Ijodiy fikrlashda esa mantiqiy tafakkur, solishtirish, sabab-oqibatni aniqlashdan ko‘ra tasavvur va xayolga suyanish yetakchilik qiladi. Pragmatik fikrlashda jarayonni o‘ylovchining manfaati boshqaradi.

Shuningdek, fikr yuritish uslubiga qarab fikrlash jarayonini mantiqiy va analitik tarzida ham tasniflash mumkin. Mantiqiy tafakkur qilishda fikr ob’ektiga izchillik, sabab va oqibat nuqtayi nazaridan yondashish ko‘zda tutiladi. Analitik tafakkur ham mantiqiy fikrlashga juda o‘xshab ketadi. Hatto mantiqiy tafakkurga xos jihatlarni qamrab oladi ham. Lekin fikrlashning bu yo‘sinida tafakkur sur’atining tezligi, masalaga turli tomondan yondasha bilish, qamrovdorlik, muammoga eng muvofiq va samarali yechim topish singari jihatlar ustuvorlik qiladi. Odamlar xilma-xil bo‘lgani singari ularning fikrlash yo‘sini ham turli-tumandir. Kimdir mantiqiy, kimdir pragmatik, kimdir ijodiy, kimdir esa analitik tafakkurga tabiatan moyil bo‘ladi. Har bir odamga tabiat tomonidan berilgan fikrlash turlari orasida analitik tafakkur tarzi bir umr rivojlantirish va takomillashtirish mumkinligi bilan ajralib turadi.

Analitik tafakkur egasida masalaning asl mohiyatini anglash, uning sabab-oqibatlarini tushunish, kerakli qarorga kela bilish qobiliyati bo‘ladi. Shu bois bunday fikrlaydigan odamlar olam hodisalari va odamning xatti-harakatlari yuzasidan xolis, atroflicha va haqqoniy xulosa chiqara biladilar. Analitik tafakkur yangi axborot izlab topish, uni o‘rganish va tizimga solish, olingan ma’lumotlar asosida to‘g‘ri to‘xtamga kelish imkonini beradi. Analitik tafakkur yuritishda: a) axborotni belgilash, atroflicha o‘rganish; b) axborotni muayyan qismlarga ajratish; v) ma’lumotlarni taqqoslab ular o‘rtasidagi bog‘liqlikni topish; g) axborotni xolis baholash; d) mantiqiy fikrlash; e) fikrni izchillik bilan to‘g‘ri bayon etish; yo) fikrlayotganda faqat dalillarga tayanish; j) axborotlarning muhimini nomuhimidan ajrata bilish; z) mavjud axborotga tanqidiy qaray bilish; i) muqobil yechimlar bo‘lishi mumkinligini hisobga olish; y) xulosa chiqarish kabi fikriy operatsiyalar bajariladi.

Aytilganlardan kelib chiqib, o‘rganilayotgan muammo yuzasidan aniq dalil bo‘ladigan ko‘p miqdordagi axborotlarni to‘plab, masalaga turli tomondan yondashib, uning mayda jihatlarini ham nazardan qochirmagan holda mavjud dalillarni tahlil qilish orqali eng to‘g‘ri yechimni tez va aniq topishga qaratilgan aqliy jarayon analitik tafakkurdir tarzida ta’rif berish mumkin. Yaxshi rivojlangan analitik tafakkur har qanday chigal muammoning ham eng samarali va foydali bir necha yechimini tezkorlik bilan topa biladi. Bunday fikrlay oladigan odamda har qanday muammo yuzasidan ko‘p taraflama o‘ylangan asosli to‘xtam, o‘z faoliyatini rejalashtirish va natijasini ko‘ra bilish qobiliyati bo‘ladi.

Analitik tafakkur egasi o‘z ustida tinimsiz ishlaydi, o‘z bilimlarini to‘xtovsiz ravishda boyitib boradi. Zero, analitik tafakkurning tabiati shuni taqozo etadi. Bunday mutaxassis faqat ish joyi va ishlayotgan vaqtda emas, balki hamma joyda va hamma vaqt o‘z malakasini oshirib borish zaruriyatini his qilib yashaydi. Analitik fikrlaydigan filolog pedagoglik kasbi bilan shug‘ullanishi yoki ilmiy tadqiqot olib borishidan qat’i nazar hamisha turli-tuman axborotlar qabul qilish, ularni qismlarga ajratish, umumlashtirish, muhimini nomuhimidan ajratish, qiyoslash, qo‘shimcha axborotlar olish, sabab-oqibat bog‘lanishlarini aniqlash, qaror qabul qilish zaruriyati bilan yashaydi.

O‘zbek pedagog olimi Abdulla Avloniy: “Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko‘p zamonlardan beri taqdir qilinub kelgon, muallimlarning diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangon muqaddas bir vazifadur. Bu tarbiya muallimlarning yordamiga so‘ng darajada muhtojdurki, fikrning quvvati, ziynati, kengligi muallimning tarbiyasiga bog‘liqdur” [2, B. 78], – deya ta’kidlaydi.

Fikr tarbiyasi g‘oyasi adabiy ta’lim mohiyati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, adabiyot darsini o‘quvchilarda analitik tafakkurni shakllantirishning eng samarali intellektual maydoniga aylantiradi. Badiiy matn o‘z tabiatiga ko‘ra ko‘pqatlamli bo‘lib, uni anglash o‘quvchidan faqat yuzaki mazmunni qabul qilishni emas, balki obrazlar tizimi, syujet rivoji, muallif pozitsiyasi va g‘oyaviy yo‘nalish o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni tahliliy yondashuv asosida ochib berishni talab etadi. Agar adabiyot o‘qitish jarayoni tayyor xulosalarni yetkazishga emas, balki savol qo‘yish, matndan dalil izlash, qiyosiy fikr yuritish va shaxsiy talqinni asoslashga yo‘naltirilsa, o‘quvchilarda analitik tafakkur bosqichma-bosqich va barqaror shakllanadi. Bu jarayonda pedagogning roli hal qiluvchi ahamiyat kasb etib, u o‘quvchining fikrlash faoliyatini yo‘naltiruvchi, tahliliy jarayonni tashkil etuvchi va mulohazalarni chuqurlashtiruvchi subyekt sifatida namoyon bo‘ladi. Natijada adabiy ta’lim nafaqat estetik zavq bag‘ishlovchi fan sifatida, balki o‘quvchini hayotni anglash, inson taqdiri va ijtimoiy voqelikni tahlil qilishga o‘rgatuvchi fikr tarbiyasining muhim maktabi sifatida namoyon bo‘ladi.

Ulkan pedagogik tajriba egasining yuqoridagi fikrlaridan talabalarda analitik tafakkurni takomillashtirishda ham pedagoglarning xizmati alohida o‘rin tutishini anglash mumkin bo‘ladi. Biroq, talaba yoki o‘quvchi analitik tafakkurni shakllantirish haqidagi tavsiya va ko‘rsatmalarni shunchaki eshitishi, uzundan-uzoq ma’ruzalarni tinglashi bilangina bunday qobiliyatga ega bo‘lib qolmaydi. Nazariy bilimlar amaliyotga yo‘l ochadi, ammo haqiqiy uquv va malaka amaliyotda hosil bo‘ladi. Analitik tafakkur uzviylik va izchillikda: oilada, ta’lim muassasalarida,

ishlab chiqarishda, mustaqil ta’limda shakllanib, rivojlanib boradi. Analitik tafakkur qobiliyati fikrlash ustida tinimsiz shug‘ullanish, izlanish hosilasidir.

Mutaxassislar odamlarda analitik tafakkur yuritish qobiliyatini quyidagi zakovatni o‘stiruvchi mashg‘ulotlar bilan muntazam shug‘ullanish orqali qaror toptirish mumkinligini ta’kidlaydilar:

- detektiv, fantaziya, falsafiy kitoblar mutolaasi;
- mantiqiy jumboqlarni yechish;
- krossvord, skanvord, rebus kabi boshqotirmalar ustida ishlash;
- shaxmat o‘yini bilan shug‘ullanish;
- kundalik axborotlarni, voqea-hodisalarni tahlil qilib borish;
- har kuni yangi bir narsani bilib olishga intilish;
- turli intellektual bahs- munozaralarda qatnashish;
- atrof-olam haqida tafakkur yuritish;
- fikrlash xaritasini yaratish;
- fikr va xulosalarni yozib borish;
- fikr-xulosalarning muqobil variantlarini yaratish;
- muammoli vaziyatlarni modellashtirish va hal etish [8].

Q. Husanboeva o‘zining doktorlik tadqiqot ishida shunday yozadi: “Tafakkur har bir ruhan sog‘lom insonda tabiatan mavjud bo‘lgan aqliy-jismoniy hosila. U har kimda o‘ziga xos tarzda, o‘z intellektual darajasida mavjud. Ta’lim-tarbiya jarayonida tafakkurning shakli, sifati, darajasini tarbiyalash, ma’lum yo‘nalishini belgilash, uni sayqallash va rivojlantirish mumkin” [3].

Olimaning fikrlaridan ayon bo‘ladiki, tafakkurni shakllantirish yo‘q joydan, “noldan” boshlanmaydi. U fiziologik jihatdan sog‘lom odamda tabiatan mavjud bo‘lgan ne’matdir. Ta’lim-tarbiya jarayonida subyektning fikrlash mexanizmlari harakatga keltiriladi, faollashtiriladi. Analitik tafakkur mustaqil fikrlash negizida shakllanadi, nazariy-amaliy faoliyat izchilligida takomillashib boradi.

Nemis pedagog olimi A. Disterveg “Har qanday ta’lim va tarbiyada eng asosiy narsa muallim, uning tafakkur dunyosidir” [4, B. 123], – deb aytadi. Bundan anglashiladiki, o‘qituvchining tafakkur doirasi qanchalik keng bo‘lsa, talabalarning fikr yuritish malakasi shuncha ortib boraveradi. O‘qituvchi talabalarda analitik tafakkur yuritishga ehtiyoj uyg‘otadi, qiziqtiradi. Shoir yoki yozuvchilarning tarjimai holi, yozgan asarlari, ulardagi obrazlar yoki ma’lum bir asarini o‘rganishga yo‘naltirilgan krossvord, skanvord, boshqotirma, rebus, konseptual xarakterdagi savol va topshiriqlar tuzib kelish kabi topshiriqlar beradi, ijrosini

tahlil qiladi.

Filologik ta’lim yo‘nalishlarida talabalarning analitik tafakkur qobiliyatini shakllantirish quyidagi natijarlarga erishish imkonini beradi:

- talabaning kasbiy kompetentligi shakllanadi. Analitik tafakkur layoqati bor talaba adabiyot o‘qitishning tub mohiyatini idrok qiladi: badiiy adabiyotning komil shaxs tarbiyasida tutgan o‘rnini ko‘ra biladi, o‘z faoliyatini, badiiy adabiyot insonni kamolga yetkazishning ma’naviy-ma’rifiy vositasi ekanini anglab tashkil etadi;

- analitik fikrlaydigan talaba imtihon va sinovlardan o‘tish, stipendiyadan qolib ketmaslik uchun emas, balki ilmiy-nazariy bilimlarni mustahkam egallash, kerakli amaliy ko‘nikmalarni hosil qilishga ongli tarzda kirishadi. Har bir ishning oqibati qanday bo‘lishini tafakkur bilan bashorat qiladi. Mustaqil faoliyatga shunchaki diplomli kadr bo‘lib emas, malakali mutaxassis sifatida qadam qo‘yadi;

- analitik tafakkur qobiliyatiga ega talaba atrof-olamda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarni sinchkov kuzatadi, har qanday oqibatning sababini qidiradi, dalillarni qiyoslay biladi, muhimni nomuhimdan ajrata oladi. Shu sababli, hodisalarni xolis va to‘g‘ri baholay oladi. Undagi bu sifatlar mustaqil faoliyati davomida o‘zgalarga o‘tadi, fikriy qaramlikdan asraydi;

- analitik tafakkur talabada boshqaruvchilik, tashkilotchilik layoqatini hosil qiladi. Olim Yu.V. Kurnosovning yozishicha, “Analitika har qanday liderning qo‘lida kuchli intellektual quroldir” [7, B. 5]. Lider shaxs atrofidagilarni bilim olishga, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etishga o‘rgatadi. Analitik tafakkur qiladigan talaba ilg‘or fikrlari bilan boshqalarni ortidan ergashtira biladi;

- analitik fikrlovchi filolog faoliyati davomida yuzaga keladigan ijtimoiy-psixologik muammolar va nizolarni tez va to‘g‘ri hal etadi. Analitik tafakkur vositasida boshqariladigan jamoada sog‘lom muhit barqaror bo‘ladi;

- analitik tafakkur yuritadigan filologning badiiy asarni tahlil qila olish kompetensiyasi yuksak bo‘ladi. U bilan amalga oshirilgan tahlil ilmiy to‘yinganligi, hayotiy asoslangani bilan ajralib turadi. Analitik tafakkurni egallagan o‘qituvchidagi ijobiy sifatlar o‘quvchilarga ko‘chadi va adabiyot o‘qitishdan ko‘zlangan maqsadning amalga oshuvini ta’minlaydi.

Analitik tafakkur asosiga qurilgan adabiyot darslari o‘quvchilarda kitobga o‘zgacha mehr uyg‘otadi, badiiy asar o‘qishga kuchli qiziqish, ehtiyoj hosil qiladi, kitobxonlik madaniyatini shakllantiradi. Deni Didro “Odamlar kitob o‘qishdan to‘xtasalar, fikrlashdan ham to‘xtaydilar” [6, B. 194], – deydi. Ammo duch kelgan badiiy kitobni shunchaki o‘qish-

ning o‘zi foyda bermaydi. Kitob fikrlab o‘qilgandagina kishiga manfaat keltiradi. Bu o‘rinda, ingliz siyosatshunosi E. Berkning “Mushohada yuritmasdan o‘qish ovqat hazm qilmaslik bilan barobar”, mashhur rus pedagogi K.D. Ushinskiyning “O‘qish – bu hali hech nimani anglatmaydi, o‘qish va shu o‘qilganni uqish – asosiy gap mana shunda” [6, B. 194], – degan hikmatlari aytilganlarga quvvat beradi.

Badiiy asarlarni uqib o‘qishga o‘rgatish maktab adabiy ta’limidan boshlanadi. Oliy adabiy ta’limda esa talabalarning kitobxonlik madaniyati ilmiy-pedagogik asosda yanada yuksaltirilib, professionalizm darajasiga ko‘tarilishi kerak. Analitik fikrlaydigan talaba badiiy asarni qanday o‘qib, qanday tushunishnigina emas, balki adabiy matn bilan amalga oshiriladigan barcha intellektual-estetik amallarni bajarish yo‘llarini ham egallagan bo‘ladi. O‘zining kelajakdagi pedagogik yoki tadqiqotchilik faoliyatida o‘quvchilari yoki retsipiyentlarini badiiy adabiyot olamiga olib kirib, ularga badiiy asarlardan ma’rifiy quvvat olish, ma’naviy tarbiya topish, estetik oziqlanish yo‘llarini o‘rgata biladi. Shunga erishgan filolog ta’lim va tarbiyasini olgan o‘quvchi hamda talabaning mustaqil fikrlashi tez rivojlanadi, tanqidiy tafakkur yuritish layoqati mustahkamlanadi, badiiy so‘zni his qiladigan, o‘qigan badiiy asarini tahlil eta biladigan, undan hayotiy xulosalar chiqarishga qodir bilimli shaxsga aylanadi.

Yunon faylasufi Demokrit: “Bilishning ikki ko‘rinishi mavjud. Ularning biri tuyg‘ular vositasida bilish, ikkinchisi tafakkur ila bilishdir” [5, B. 71], – deb ta’kidlaydi. Adabiy ta’lim o‘quvchi va talabalarning bilish darajasini ham tuyg‘ular, ham tafakkur vositasida yuksaltirishga xizmat qiladi. Alisher Navoiyning “Xamsa”, Cho‘lponning “Go‘zal”, “Buzilgan o‘lka”, Hamid Olimjonning “O‘rik gullaganda”, Erkin Vohidovning “O‘zbegim”, Abdulla Oripovning “O‘zbekiston”, Halima Xudoyberdievaning “Begim, sizni tabiat”, Muhammad Yusufning “Vatanim” kabi nazmiy asarlarini; Qodiriyning “O‘tkan kunlar”, Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi”, Shukur Xolmirzaevning “O‘zbeklar”, O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari”, Tog‘ay Murodning “Yulduzlar mangu yonadi” kabi juda ko‘p asarlari talabalarning tafakkur va tuyg‘ulariga birvarakayiga ta’sir ko‘rsatadi. Haqiqiy badiiy asar kitobxonni tuyg‘ulantirish, hislarini harakatga keltirish orqali bilimini oshiradi. Tuyg‘ulanish, bilimlanish tafakkur qilishga turtki bo‘ladi. To‘liq idrok etilmagan badiiy asar na tuyg‘uga va na tafakkurga ta’sir qiladi.

Ilmda analitik tafakkur usuliga tayangan holda asar tahlili matnning mazmuni, tarkibi, mohiyati, vazifasi, qadriyati va umummadaniy yo‘nalishiga qaratilishi mumkinligi aytiladi. Analitik tafakkur faqat butunni qismlarga ajratish ko‘zda tutiladigan analiz (tahlil)dangina iborat emas. Analitik tafakkur axborotni umumlashtirish, uni sabab-oqibat

nuqtayi nazaridan tekshirish, chog‘ishtirish natijasida yuqori nazariy to‘xtamga kelishni ko‘zda tutadi. Analitik tafakkurni shakllantirish filolog talabalarda tadqiqotchilik yoki pedagogik maqsadga erishish uchun axborotga to‘g‘ri yondashish, uni mantiqiy qismlarga ajrata bilish, muhimdan nomuhimni farqlay olish, amaliyotga tatbiq etish singari uquvlarda namoyon bo‘ladigan yaxlit axborot madaniyatni yuzaga keltiradi, mutaxassis sifatida yuksaltiradi.

Analitik tafakkur jarayonida badiiy so‘zning ma’no qirralari kengroq idrok etiladi. E. Vohidovning “O‘zbegim” qasidasidagi birgina “Ko‘hna tarix shodasida bitta marjon, o‘zbegim” misrasini analitik yondashuv asosida tahlil qilish kishidan bir dunyo bilim va tuyg‘ular qo‘zg‘alishini talab qiladi. Shu misradagi "tarix shodasi" ifodasi analitik tahlil qilinganda yer yuzida insoniyat paydo bo‘lganidan boshlab to shu kunga qadar bosib o‘tilgan murakkab tarixiy yo‘l, voqelar, shaxslar, urushlar, taraqqiyot, tanazzul idrok etiladi. Misradagi "marjon" ifodasi “o‘zbegim”ning insoniyat sivilizatsiyasining uzviy bir bo‘lagi bo‘lib, tutgan o‘rni qadimiy va yuksak ekanidan, jahon madaniyatini rivojlantirgan ilg‘or xalqlardan bo‘lganidan xabar beradi. Bunday analitik xulosalar o‘quvchining bilim darajasini oshiribgina qolmay, tuyg‘ularini harakatga keltirib, qalbiga iftixor tuyg‘usini soladi.

Odatda, “O‘zbek folklori” fani misolida aytadigan bo‘lsak, talabalar “Alpomish” dostonidagi zakot, Alpomishning Murodtepaga chiqishi, Barchinning to‘rtta shart qo‘yishi, Alpomish va Qorajonning do‘st tutinishi, Alpomishning yetti yil zindonda yotishi va asardagi boshqa shu kabi voqealarni o‘rganish, tahlil etishda tavsiflash, tasvirlash, bayonchilik yo‘lidan boradilar. Dostonda zakot masalasi asar qahramonlari Boybo‘ri, Boysari, qavm faollari tomonidan tafakkur etilmagani uchun ham og‘ir kunlarni boshdan kechirishga majbur bo‘lganliklari tahlilga tortilmaydi.

Shu kabi o‘rinlarda analitik tafakkur yuritilganida talabalar dostonning qat-qatiga yashiringan hayotiy haqiqatlarni kashf etadilar. Zakotning rahm-shafqat, g‘amxo‘rlik, bir-birini qo‘llab-quvvatlash, odamlar holidan doimo xabardor bo‘lish, o‘zingga ravo ko‘rgan yaxshiliklarni boshqalarga ham ravo ko‘rish, do‘stlik, ahillik, totuvlik, tinchliksevarlik, dardkashlik, ogohlik va boshqa jihatlarini analitik tafakkur qiladilar. Natijada talabalarda komillik sifatlari ortib boradi.

“Farhod va Shirin” dostonini o‘rganish soatlarida Chin mamlakatining podshohi o‘g‘li Farhodga atab to‘rtta qasr qurdirishi xususida analitik tafakkur yuritilib, bu to‘rt qasr ramziylik sifatlarga: 1-bahor fasliga monand qasr insonning bolalik davriga, 2-yoz fasliga monand qasr insonning yoshlik davriga, 3-kuz fasliga monand qasr insonning

o‘rta yoshlik davriga, 4-qish fasliga monand qasr odamning keksalik davriga ishora qilishi idrok etiladi. Analitik tafakkur talabalarning vaqtning bebaqoligi, o‘tkinchi ekanini, inson o‘z umrini ezgu ishlar, foydali amallar bilan bezashi zarurligini, ilm olish, hunar egallash, halol rizq bilan hayot kechirish, odamlarga, yurtga, Vatanga naf keltirish saodat ekanini mustaqil idrok etishida, zaruriy fikr va xulosalar yasashida intellektual ochqich vazifasini bajaradi.

Chinakamiga shaxsga yo‘naltirilgan, ya’ni gumanizatsiyalashgan oliy filologik ta’lim o‘qitish jarayonini talabada oldindan mavjud bo‘lgan subyektlik tajribasini hisobga olgan holda tashkil etishni taqozo qiladi. Shuningdek, talabaning kelajakdagi kasbiy faoliyati modelini ham imkon qadar ana shu sub’ektlik tajribasiga yaqinlashtirgan holda qurishni ko‘zda tutadi. Oliy filologik ta’limning shakli va metodlari har bir talabada analitik tafakkur o‘stirilishini ta’minlashga qaratilgan bo‘lishi kerak.

Oliy adabiy ta’limni tashkil etishdagi bunday yondashuv talabalar tomonidan integrativ tarzda olingan bilim va egallangan ko‘nikmalarning chuqur va atroflicha tahlil qilinishiga tayanadi. Talabalarning analitik tafakkur darajasini aniqlab, didaktik tadbirlarni ularning bu boradagi imkoniyatlarini hisobga olgan holda uyushtirish professor-o‘qituvchilarga shaxsga yo‘naltirilgan holda bilim berish jarayonini samarali tashkil etish va qiynalmay boshqarish imkonini beradi. Barcha didaktik yumushlar chuqur ilmiy tahlilga tayangan holda tashkil etilgani tufayli domlalar ham, talabalar ham shaxsga yo‘naltirilgan va analitik tafakkur shakllantirishga qaratilgan o‘qitish ishlarining qanchalik samara berayotgani haqida aniq axborotga ega bo‘lishadi. Bu esa, zarur bo‘lsa, o‘z vaqtida ta’lim jarayonini tashkil etish yuzasidan xoh ta’lim mazmuni, xoh o‘qitishni amalga oshirish texnologiyasi bo‘yicha muayyan tahrirlar kiritish imkonini beradi.

Taraqqiyotning bugungi darajasi har qanday kasb egasidan, ayniqsa, adabiy asarlarning mohiyatini anglatishga da’vat etilgan filologdan o‘xshatish, chog‘ishtirish, qismlarga ajratish, umumlashtirish, tizimlash, modellashtirish, tasniflash va mo‘ljal qilish orqali o‘z faoliyatini rejalashtirishni talab qiladi. Sanab o‘tilgan sifatlarni qaror toptirish oliy ta’limning istalgan bo‘g‘inida, jumladan, filologik yo‘nalishdagi institut va universitetlar uchun ham talabalarda analitik tafakkurni shakllantirishning ilk imkoniyatlari, sharoitlari hisoblanadi.

Bo‘lajak mutaxassislarda olam hodisalari va odamlararo munosabatlarga kasbiy va ilmiy nuqtayi nazardan analitik yondasha bilish ko‘nikmasini tarkib toptirish har bir oliy o‘quv yurtining ilmiy mavqeiga bog‘liqdir. Bugungi oliy adabiy ta’lim oldida ikki yirik maqsad tura-

di. Birinchisi – bo‘lajak filologlarda kasbiy gumanistik dunyoqarash va mutaxassisligiga monand odamiylik yondashuvini qaror toptirish, ya’ni ularda komil insonga xos bo‘lgan ma’naviy sifatlarni rivojlantirish. Ikkinchi maqsad esa – filologlarga kasb madaniyati va faoliyatining texnologik asoslarini o‘rgatish. O‘zida yuqori darajada analitik tafakkur tarkib toptirmagan filolog samarali faoliyat ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘lmaydi. Chunki analitik tafakkurgina filolog mutaxassisga ham shaxs, ham kasb egasi sifatida o‘zgalarga ta’sir ko‘rsata olish, o‘z dunyoqarashini boshqalarga tushunarli tarzda yetkaza bilish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami: 20 tomlik. 8-tom. Xamsa: Farhod va Shirin. – Toshkent, 1991. – 122 b.

2. Abdulla Avloniy. O‘son millat. Istiqlol fidoyilari. – Toshkent: Sharq, 1993. – 99 b.

3. Husanboyeva Q. Adabiy ta’lim jarayonida o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishning ilmiy-metodik asoslari: ped. fan. d-ri ... dis. – Toshkent, 2007. – 258 b.

4. Tafakkur gulshani: Vatandosh hamda xorijiy allomalarning aforizmlari va hikmatli so‘zlari / to‘plovchi V. Voronsov. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1989. – 142 b.

5. 100 mumtoz faylasuf: Taqdirlar, hikmatlar, aforizmlar / to‘plovchi va tarjimon S. Jo‘rayeva. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017. – 71 b.

6. Tafakkur gulshani: Vatandosh hamda xorijiy allomalarning aforizmlari va hikmatli so‘zlari / to‘plovchi V. Voronsov. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1989. – 194 b.

7. Kurnosov Yu.V. Azbuka analitiki. – Moskva: RUSAKI, 2013. – 7 s.